

TARBIYA JARAYONIDA MEDIA VA AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Mamatova Nilufar Davlatovna

Annotatsiya: Mazkur tezisda tarbiya jarayonida media va axborot madaniyatini shakllantirish masalalari tahlil qilinadi. Media muhitining yoshlar ongiga, axloqiy qarashlariga va ijtimoiy faoliyatiga ta'siri o'rganiladi. Shuningdek, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi kommunikativ jarayonlarda media vositalaridan samarali foydalanish, axborot oqimlarini tanqidiy baholash ko'nikmalarini rivojlantirish hamda axborot madaniyatini tarbiya tizimiga integratsiya qilishning ilmiy asoslari yoritiladi, hamda media savodxonlik, axborot xavfsizligi, madaniy immunitet va shaxsning ijtimoiy ongini shakllantirishda pedagogik yondashuvlarning ahamiyati chuqur tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: tarbiya, media madaniyati, axborot madaniyati, media savodxonlik, axborot xavfsizligi, kommunikatsiya, axborot tahlili, shaxs ongini rivojlantirish, pedagogik kompetensiya.

FORMATION OF MEDIA AND INFORMATION CULTURE IN THE EDUCATIONAL PROCESS OF MORAL EDUCATION

Abstract: This thesis analyzes the issues of forming media and information culture in the process of moral education. The influence of the media environment on the consciousness, moral views, and social activity of youth is examined. The study highlights the effective use of media tools in the communicative process between teachers and students, the development of skills for critical evaluation of information flows, and the scientific foundations of integrating information culture into the educational and moral upbringing system. Moreover, the thesis provides an in-depth analysis of the importance of pedagogical approaches in fostering media literacy, information security, cultural immunity, and the development of students' social consciousness.

Keywords: education, media culture, information culture, media literacy, information security, communication, information analysis, development of personal consciousness, pedagogical competence.

ФОРМИРОВАНИЕ МЕДИА И ИНФОРМАЦИОННОЙ КУЛЬТУРЫ В ПРОЦЕССЕ ВОСПИТАНИЯ

Аннотация: В данной статье анализируются вопросы формирования медиа и информационной культуры в процессе воспитания. Рассматривается влияние медиа-среды на сознание, моральные взгляды и социальную активность молодежи. Особое внимание уделено эффективному использованию медиа-

средств в коммуникативных процессах между учителем и учеником, развитию навыков критической оценки информационных потоков, а также научным основам интеграции информационной культуры в систему воспитания. Кроме того, подробно анализируется значение педагогических подходов в формировании медиа-грамотности, информационной безопасности, культурного иммунитета и социального сознания личности.

Ключевые слова: воспитание, медиа-культура, информационная культура, медиа-грамотность, информационная безопасность, коммуникация, анализ информации, развитие сознания личности, педагогическая компетентность.

KIRISH

Zamonaviy axborotlashgan jamiyatda media va axborot madaniyatining o'zni beqiyosdir. Bugungi kunda tarbiya jarayoni faqat og'zaki ta'sir yoki an'anaviy metodlar bilan cheklanib qolmayapti, balki u media vositalari, raqamli kommunikatsiyalar va virtual muhit bilan chambarchas bog'lanib bormoqda. Shu bois media va axborot madaniyatini tarbiya jarayoniga singdirish nafaqat pedagogik zarurat, balki jamiyat taraqqiyotining asosiy sharti sifatida qaraladi. Zamonaviy globallashuv jarayonida media va axborot oqimlari inson hayotining ajralmas qismiga aylangan. Ayniqsa, yosh avlodning dunyoqarashi, qadriyatlari va axloqiy pozitsiyasiga media vositalari bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababdan tarbiya jarayonida media va axborot madaniyatini shakllantirish dolzarb pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi.

Media madaniyati bu insonning media vositalar bilan ongli munosabatda bo'lishi, ularni tahlil qilish, baholash va ulardan maqsadli foydalanish ko'nikmasidir. U shunchaki texnik bilim emas, balki shaxsning axborotga nisbatan mas'uliyatli, tanqidiy va estetik yondashuvini shakllantiruvchi ijtimoiy-ma'naviy jarayondir. Tarbiya fani o'qituvchisi media vositalarini o'quvchilarning ma'naviy rivojiga xizmat qildirish uchun pedagogik strategiyalarni puxta bilishi lozim. Media va axborot madaniyati zamonaviy tarbiyaning poydevoridir. O'qituvchining media savodxonligi, pedagogik tafakkuri va raqamli kompetensiyasi o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, axborotga ongli munosabat va axloqiy mas'uliyatni shakllantiradi. Shunday ekan, tarbiya jarayonida media va axborot madaniyatini rivojlantirish pedagogik tizimning strategik yo'nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim. Axborot madaniyati esa shaxsning axborot olish, uni qayta ishlash, saqlash va foydalanuvchilarga uzatishdagi madaniyatidir. U o'quvchi shaxsida axborot oqimlari ichida to'g'ri yo'nalish tanlash, ishonchli manbalarni ajratish va manipulyativ axborotdan himoyalaniшни o'rgatadi. Bu esa shaxsning raqamli davrda mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish va o'z qarashlarini asoslay olish qobiliyatini rivojlantiradi.

ASOSIY QISM

Tarbiya bu insonning ma'naviy, axloqiy va intellektual kamolotini shakllantirish jarayoni bo'lib, u bugun media muhit ta'sirida yangicha tus olmoqda. Yoshlar har kuni turli axborot oqimlari, ijtimoiy tarmoqlar, reklama va ko'rsatuvlar orqali ma'naviy signallarni qabul qiladilar. Shuning uchun ularning axborotga nisbatan tanqidiy fikrlash, mustaqil baholash va to'g'ri yo'nalish tanlash ko'nikmasini rivojlantirish tarbiya tizimining ajralmas vazifasiga aylangan. Media madaniyati insonni axborotning iste'molchisi emas, balki faol tahlilchisi, baholovchisi va ongli foydalanuvchisiga aylantiradi. Tarbiya jarayonida media va axborot madaniyatini shakllantirish o'qituvchining o'zining raqamli savodxonligi va axborot madaniyatiga ham bevosita bog'liqdir. O'qituvchi media materiallardan (videorolik, infografika, interaktiv taqdimot, ijtimoiy tarmoqlardagi kontent) ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarda foydalanishni bilishi kerak. Bu jarayon shunchaki texnik malaka emas, balki didaktik va axloqiy yondashuvni talab qiladi. Bundan tashqari, o'quvchilarda media madaniyatni shakllantirish uchun ularning emotsional-intellektual holatini hisobga olish zarur. Yoshlar media orqali nafaqat ma'lumot, balki hissiy ta'sirni ham qabul qiladilar. Shu bois pedagog media vositalari orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish, tanqidiy fikrlash va ijtimoiy faollikni rag'batlantirishga e'tibor qaratishi lozim.

Tarbiya jarayonida media madaniyatning asosiy vazifasi, axborot oqimlarida yo'qolib ketmasdan, insonparvarlik, bag'rikenglik, axloqiy poklik kabi qadriyatlarga sodiq qolgan shaxsni shakllantirishdir. Bunda o'quvchi media mahsulotlarini passiv iste'molchi emas, balki faol tahlilchi, mas'uliyatli foydalanuvchi sifatida tarbiyalanadi. Pedagogik jarayonda media madaniyatni rivojlantirish innovatsion yondashuvlarni talab qiladi. Masalan, raqamli simulyatsiyalar, virtual muhitda tarbiyaviy loyihalar, ijtimoiy tarmoqlarda ma'naviy targ'ibot kampaniyalari tashkil etish orqali o'quvchilarning media savodxonligini oshirish mumkin. Bu nafaqat axborot madaniyatini, balki ularning ijtimoiy faoliyatini ham rivojlantiradi. Shuningdek, axborot madaniyatini shakllantirishda media etikasi, intellektual mulkni hurmat qilish, internetdagi xatti-harakat madaniyati, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish kabi ko'nikmalarni rivojlantirish muhimdir. Bu jarayon o'quvchilarda media vositalaridan mas'uliyatli foydalanish, tanqidiy tahlil va ma'naviy immunitetni kuchaytiradi.

Media va axborot madaniyati o'quvchilarda ijtimoiy faoliyatni, mas'uliyatni, muloqot madaniyatini ham rivojlantiradi. O'quvchi media muhit orqali o'z fikrini ifoda etish, munozarada qatnashish, o'z pozitsiyasini himoya qilishni o'rganadi. Shu bilan birga, raqamli vositalardan to'g'ri foydalanish, axborot etikasi va madaniyatiga rioya qilish ularning axloqiy yetukligiga xizmat qiladi. Bu esa tarbiya tizimini an'anaviy doiradan chiqarib, uni zamonaviy, interaktiv va innovatsion shaklga keltiradi. Media va axborot madaniyatini shakllantirish o'qituvchining kasbiy tayyorgarligiga bevosita

bog'liq. O'qituvchi o'zi media vositalarini samarali qo'llay olmasa, o'quvchilarga media savodxonlikni singdira olmaydi. Shu sababli pedagog raqamli kompetensiyani egallashi, media axborotlarning tahlili, saralashi va pedagogik maqsadlarda qo'llanilishini o'rganishi zarur. Masalan, video darslar, vizual tahlillar, axloqiy mavzudagi raqamli loyihalar va onlayn muhokamalar o'quvchilar tafakkurini boyitadi, ularning ijtimoiy faolligini oshiradi. Bundan tashqari, media va axborot madaniyati yoshlarning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga bo'lgan munosabatini ham shakllantiradi. O'qituvchi media vositalari orqali milliy g'oyani, vatanparvarlik, bag'rikenglik, halollik kabi fazilatlarni tarbiyalash imkoniyatiga ega. Bu jarayonning muhim jihat shundaki, axborotning tarbiyaviy ta'siri ijobiy yo'nalishda boshqarilmasa, u yoshlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Umuman olganda, tarbiya jarayonida media va axborot madaniyatini shakllantirish bu zamonaviy ta'limning ajralmas qismi bo'lib, u nafaqat bilim berish, balki shaxsni axborotli jamiyatda faol, ongli va axloqiy pozitsiyaga ega inson sifatida tarbiyalashni maqsad qiladi. Shu tariqa, tarbiya jarayonida media va axborot madaniyatini rivojlantirish bu shunchaki zamonaviy tendensiya emas, balki insonni ongli, axloqiy va mas'uliyatli shaxs sifatida kamol toptirishning zamonaviy pedagogik modeli hisoblanadi. O'qituvchi bu jarayonda nafaqat bilim beruvchi, balki media muhitdagi yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, axborot madaniyatining targ'ibotchisi, yoshlar ongini himoya qiluvchi shaxs sifatida faoliyat yuritadi.

XULOSA

Tarbiya jarayonida media va axborot madaniyatini shakllantirish zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylandi. Chunki bugungi axborot asrida yosh avlodni faqat bilim bilan emas, balki axborot oqimlaridan to'g'ri foydalanish, ularni tahlil qilish va mustaqil fikrlashga o'rgatish zarur. Media madaniyatli shaxs bu faqat texnik vositalarni biluvchi emas, balki axborotni ongli idrok etuvchi, uni tahlil qilib, jamiyat manfaatlariga mos yo'naltira oladigan insondir. Tarbiya fanining mazmuniga media va axborot madaniyatini integratsiya qilish orqali o'quvchilarda raqamli savodxonlik, axloqiy immunitet, axborotga tanqidiy munosabat va ijtimoiy faollik shakllanadi. Bu esa nafaqat shaxsiy rivojlanishga, balki jamiyatda sog'lom ma'naviy muhitni qaror toptirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Rasulova N. Pedagogik kommunikatsiya va media savodxonlik asoslari. Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.
2. Mamatova M. Zamonaviy pedagogning raqamli kompetensiyasi. Samarqand: Ilm ziyo, 2023.
3. Xolmatov B. Axborot xavfsizligi va madaniy immunitet. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2019.

4. Yo'ldosheva G. Media pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: Ma'naviyat, 2021.
5. Nazarova D. Tarbiya jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. Toshkent: TDPU, 2020.
6. Jo'raev S. Media savodxonlik: nazariya va amaliy yondashuvlar. Toshkent: O'zbekiston, 2024.